



## LIBERALIZM VA KONSERVATIZM MAFKURALARINING SIYOSIY JARAYONLARDAGI AHAMIYATI

*Ilmiy rahbar: Rahmonqulov Farhod*

*Termiz Davlat Pedagogika institutining*

*Milliy istiqlol g‘oyasi*

*ma‘naviyat asoslari va huquq ta’limi*

*yo‘nalishining 3-kurs 301-guruh talabasi*

**Zayniddinova Bibixadicha**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada liberalizm va konservativm mafkuralarining nazariy asoslari, tarixiy shakllanishi va zamonaviy jamiyatdagi o‘rni o‘rganiladi. Ushbu mafkuralarning davlat boshqaruvi, inson huquqlari va iqtisodiy tizimga ta’siri aniq dalillar va manbalar asosida tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** liberalizm, konservativm, mafkura, siyosiy falsafa, davlat boshqaruvi, inson huquqlari

**Kirish.** Siyosiy mafkuralar jamiyatning rivojlanish yo‘nalishini belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Liberalizm va konservativm bu borada eng asosiy ikki mafkura hisoblanadi. Liberalizm inson huquqlari va shaxsiy erkinlikni ta’kidlaydi, konservativm esa ijtimoiy tartib va an’anaviy qadriyatlarni saqlashni maqsad qiladi. Bu mafkuralar zamonaviy davlatlar siyosiy tizimlarining ajralmas qismi bo‘lib, ularning qiyosiy tahlili dolzarb masala hisoblanadi.

Liberalizm va konservativm siyosiy mafkuralari nafaqat ijtimoiy tizimlarning asosiy yo‘nalishlarini belgilash, balki davlat boshqaruvi, iqtisodiy siyosat va shaxsning jamiyatdagi o‘rni haqida fundamental qarashlarni taklif qiladi. Liberalizmda inson erkinligi va individual huquqlarni himoya qilish ustuvor ahamiyatga ega. U davlatning aralashuvini minimallashtirishni, erkin bozor iqtisodiyotini va demokratiya prinsiplarini targ‘ib qiladi. Liberal fikr yurituvchilar



jamiyatda o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlashga, shuningdek, diskriminatsiya va ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurashishga e’tibor qaratadilar.

Boshqa tomondan, konservativizm an’anaviy qadriyatlarni, diniy va ijtimoiy tartibni saqlashni maqsad qiladi. U o‘zgarishlarni ehtiyyotkorlik bilan, an’analarga hurmat bilan amalga oshirishni talab qiladi. Konservativlar jamiyatning barqarorligini saqlash uchun, o‘zgarishlarni asta-sekin kiritishni va avvalgi tajribalarga asoslangan yondashuvni afzal ko‘rishadi. Shu bilan birga, konservativizm davlatning ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarni boshqarishdagi roli katta bo‘lishini ta’kidlaydi.

Ikkala mafkura o‘rtasidagi qarama-qarshilik, zamonaviy siyosiy tizimlarda, ayniqsa demokratik davlatlarda, aniq bir muvozanatni topish uchun kurashni davom ettiradi. Shuning uchun liberalizm va konservativizmni o‘zaro solishtirish, ularning jamiyatni boshqarishdagi roli va qarashlari haqida chuqur tushuncha yaratadi.

**Adabiyotlar tahlili:** Liberalizm va konservativizm mafkuralari o‘ziga xos ilmiy-nazariy tamoyillar asosida shakllangan. Liberalizmning asoschisi sifatida Jon Lokk va Adam Smit kabi mutafakkirlarni ko‘rsatish mumkin. Ular davlatning iqtisodiy va siyosiy cheklovlarini kamaytirishga chaqirgan. Adam Smit esa liberalizmning iqtisodiy asoslarini shakllantirgan. U “Xalqlarning boyligi” asarida bozor iqtisodiyoti va erkin savdo tizimining jamiyat taraqqiyoti uchun eng maqbul tizim ekanini ta’kidlagan.

Konservativizm esa Edmund Berk tomonidan shakllantirilgan bo‘lib, u jamiyatdagi ijtimoiy tartib va an’analarning saqlanishiga urg‘u bergen. U “Fransuz inqilobi haqida mulohazalar” asarida, jamiyatning barqarorligini saqlash uchun an’anaviy qadriyatlarni va ijtimoiy tartibni himoya qilish kerakligini ta’kidlagan. Ushbu mafkuralarning rivojlanishida Monteskyu, Tomas Gobbs, va Aleksis de Tokvil kabi olimlarning hissasi katta.

**Metodologiya.** Maqola tayyorlashda qiyosiy tahlil, tarixiy yondashuv va kontent tahlili metodlaridan foydalanildi. Bu yondashuvlar liberalizm va konservativizmning nazariy asoslarini, tarixiy rivojlanish bosqichlarini va hozirgi zamonaviy jamiyatdagi ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi.



**Tahlil va Natijalar.** Liberalizm lotinchadan olingen bo‘lib, ozod, erkin degan ma’nolarni anglatadi. Liberalimning o‘ziga ta’rif beradigan bo‘lsak, ijtimoiy-siyosiy ta’limot va ijtimoiy harakat bo‘lib, shaxs va jamiyat erkinligi yetarli darajada bo‘lishini ko‘zda tutadigan g‘oya.

Liberalizm Ispaniya Konstitutsiyasini tuzish davrida paydo bo‘lgan hisoblanadi. Yevropada liberalizm ingliz siyosiy iqtisodchilari nazariyalari bilan bog‘liq holda davlatning iqtisodiy masalalarga noqonuniy aralashmasligini e’tirof etadi. Liberallar shaxsning tashabbusini, savdo erkinligi va haqiqiy raqobatni rivojlantirishga harakat qiladi. Dastlabki liberal g‘oyalar Suqrot davrida paydo bo‘lib, adolatli davlat tuzishga qaratilgan. Keyinchalik liberalizm Rim qo‘mondonlari tomonidan rivojlantirilgan.

“Liberalizm XVII-XVIII asrlarda shakllangan bo‘lib, Jon Lokk uning asoschisi hisoblanadi. Lokkning fikricha, har bir inson tug‘ma tabiiy huquqlarga ega: hayot, erkinlik va mulkka ega bo‘lish huquqi. Davlatning asosiy vazifasi ushbu huquqlarni himoya qilishdir”[1]. Adam Smit esa “liberalizmning iqtisodiy asoslarini shakllantirib, bozor iqtisodiyoti va erkin savdo jamiyat taraqqiyoti uchun eng maqbul tizim ekanini ta’kidlagan”[2].

“Konservativizm esa XVIII asrda, ayniqsa, Fransuz inqilobi davrida rivojlangan. Edmund Berk konservativizmning asosiy nazariyotchisi bo‘lib, “jamiyatning barqarorligi va ijtimoiy tartib an’anaviy qadriyatlarga asoslanishi lozim” [3] deb hisoblagan. Uning fikricha, siyosiy o‘zgarishlar asta-sekin amalga oshirilishi kerak, aks holda, bu jamiyatda beqarorlikka olib keladi.

“Konservativizm” termini birinchi bor fransuz adibi F. Shatobrian tomonidan qo‘llangan hamda XVIII asr oxirida Buyuk fransuz inqilobi davrida aristokratiya mafkurasini ifodalovchi qarashlar yig‘indisini bildirgan. Kapitalizm qaror topayotgan davrda konservativizm g‘arbda liberalizm va sotsializmga qarshi turgan.[4].

Sivilizatsiyalarga qarab konservativizmning aynan qaysi qadriyatlarni saqlab qolishi farq qiladi, masalan, g‘arb olami cheklangan hokimiyat, xristian an’analarini asrab qolishga harakat qilishsa, Hindistonda kasta tizimini, sharqiy osiyoda kattalarga hurmat, kollektivlikka urg‘u beriladi, islomiy sivilizatsiyada esa kuchli ijtimoiy tartib,



ota-onaga hurmat, jinslar rollarini saqlashga urg‘u berishadi. An’anaviy oilalarni, mahalliy dinni saqlab qolish, bir-jinslilar nikohiga qarshilik barcha konservativlarga xos g‘oyalar.

Ushbu mafkuralar zamonaviy davlatlar siyosatida ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, Skandinaviya davlatlari liberalizm asosida shakllangan, u yerda inson huquqlari va erkinliklar yuqori darajada himoya qilinadi[5]. Saudiya Arabistonni esa konservativ siyosatga asoslangan bo‘lib, davlat diniy va an’anaviy qadriyatlarni himoya qilishda faol qatnashadi.

Bu ikki mafkura iqtisodiy tizimga turlicha yondashadi. Liberalizm erkin bozorni qo‘llab-quvvatlaydi va davlat aralashuvini minimal darajada saqlashni taklif qiladi. Konservativm esa kuchli davlat nazorati orqali iqtisodiy barqarorlikni saqlashga intiladi.

Liberalizm va konservativm o‘rtasida muvozanatning mavjudligi siyosiy tizimlarning barqarorligini ta’minlaydi. Masalan, “AQShda ikki asosiy partiya – liberal demokratlar va konservativ respublikachilar o‘rtasidagi kurash milliy siyosatni shakllantiradi”[6].

Liberalizm global bozorlarni qo‘llab-quvvatlaydi va cheklanmagan erkin savdo va kapitalning erkin harakatini maqsad qiladi. Konservativm esa globalizatsiyani ijtimoiy va madaniy xavf sifatida ko‘radi va an’anaviy qadriyatlarni saqlashga e’tibor beradi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning siyosatda bir qator huquqlarini himoya qilishni asosiy maqsad qilib qo‘yadi. Bunda davlat jamiyatdagi tengsizlikni kamaytirish uchun faol ishtirok etishi kerak.

Konservativmning bir qismi bo‘lgan romantik konservativm 19-asrda rivojlangan. Bu oqim jamiyatni an’analarga, diniy qadriyatlар va tarixiy tajribalarga asoslangan holda shakllantirishni qo‘llab-quvvatlaydi. Romantik konservatorlar jamiyatda o‘zgarishlarni ehtiyojkorlik bilan va barqarorlikni ta’minlashga e’tibor qaratadilar. Shu bilan birga, konservativmda ba’zi oqimlar, masalan, neokonservativm, xalqaro siyosatda kuchli va agressiv yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi. Neokonservatorlar kuchli davlat va armiyani global tartibni ta’minlash uchun zarur deb biladilar.



Liberalizm va konservatizmning zamonaviy rivojlanishi globalizatsiya bilan bog‘liq. “Hozirda liberalizm g‘oyalariga ko‘ra, erkin bozor mexanizmi samarali iqtisodiy faoliyat yuritish, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni tartibga solib turish uchun eng qulay shart-sharoit yaratadi; ayni chog‘da bozor va raqobatchilik normal sharoitda rivojlanishi uchun bu sohaga davlatning muntazam ravishda aralashuvi zarur. XX asr oxirida liberalizm, konservatizm va sotsial-demokratiya g‘oyalari bir-biriga yaqinlashdi”[7].

Liberalizm global bozorlarni qo‘llab-quvvatlaydi va cheklanmagan erkin savdo va kapitalning erkin harakatini maqsad qiladi. Konservatizm esa globalizatsiyani ijtimoiy va madaniy xavf sifatida ko‘radi va an’anaviy qadriyatlarni saqlashga e’tibor beradi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning siyosatdagi roli ham muhimdir. Liberalizm ijtimoiy tarmoqlarni erkin fikr almashinushi va shaxsiy huquqlarni himoya qilish uchun foydalanishga moyil, konservatizm esa bu maydonni an’anaviy qadriyatlarni saqlashga qaratadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, liberalizm va konservatizm mafkuralari jamiyat rivojida muhim rol o‘ynaydi. Liberalizm erkinlik va inson huquqlarini ta’kidlab, jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Konservatizm esa tarixiy qadriyatlар va barqarorlikni saqlashga urg‘u beradi. Bu mafkuralarning bir-birini to‘ldiruvchi jihatlari zamonaviy siyosiy tizimlarda barqarorlikni ta’minalashda katta ahamiyatga ega. Liberalizm va konservatizm mafkuralari o‘rtasidagi farqlar aniq ko‘rinadi. Liberalizm jamiyatda individual erkinliklarni, inson huquqlarini himoya qilishni maqsad qiladi va o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Unga ko‘ra, inson o‘z hayotini boshqarishda erkin bo‘lishi kerak. Boshqa tomondan, konservatizm qadriyatlarni saqlashni, jamiyatda barqarorlikni ta’minalashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. U har bir o‘zgarishni ehtiyojkorlik bilan qarab, an’anaviy tizimlarni saqlashni afzal ko‘radi. Menimcha, har ikkala mafkura o‘z-o‘zidan to‘g‘ri, chunki har biri jamiyatda o‘z o‘rnini topgan. Liberalizm yangi g‘oyalarni qabul qilib, taraqqiyotga yo‘l ochsa, konservatizm esa o‘zgarishlarni barqarorlik va tartib bilan amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlaydi. Oxir-oqibat, bu ikkisi bir-birini to‘ldiruvchi kuchlar bo‘lib, jamiyatning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Lokk, J. Ikkinchis risola: Fuqarolik hukumat haqida. 1969.
2. Berk, E. Fransuz inqilobi haqida mulohazalar. 1790
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi) Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 1948
5. Tokvil, A. Amerika demokratiyasi. 1925.
6. Baymatov, A. K. (2022). MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING O'RNI. Евразийский журнал академических исследований, 2(4), 23-27.
- Qahramonovich, BA (2024). Jamiatda Tinchlik va Barqarorlikni Ta'minlash-Ma'naviy yuksalish omili. Peerian jurnali , 29 , 63-67.
7. Kahramonovich, B. A. (2024). Providing Peace And Stability In The Society-A Factor Of Spiritual Increase. The Peerian Journal, 29, 63-67.
8. Kahramonovich, B. A. (2024). Providing Peace And Stability In The Society-A Factor Of Spiritual Increase. The Peerian Journal, 29, 63-67.
9. Farhod, R. (2024). Important aspects of the formation of a sense of patriotism in the layer of owners. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 28, 11-14.
10. Рахманкулов, Ф. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА МУЛҚДОРЛАР ҚАТЛАМИ ШАКЛЛАНИШИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(13), 58-61.
11. Рахманкулов, Ф. (2024). НЕОБХОДИМОСТЬ УКРЕПЛЕНИЯ ЧУВСТВА НАЦИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ В СОВРЕМЕННУЮ ЭПОХУ. Solution of social problems in management and economy, 3(3), 28-31.
12. Патиев, X. (2023). ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИИ. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 3(11).



13. Ikromovich, P. X. (2023). Jadid ma'rifatparvarchiligi shakllanishidagi tarixiy shart-sharoit va obektiv zaruriyat. Finland International Scientific Journal of Education. *Social Science & Humanities*, 11(3), 167-179.
14. Xoldor, P. (2024). JADIDCHILIK G ‘OYALARI TARG ‘IBOTINING IQTISODIY MUOMMOLARGA NISBATAN IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI. *Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal*, 2(1), 281-285.
15. PATIYEV, X. (2024). JADID MA'RIFATPARVARLARI QARASHLARIDA FARZAND TARBIYASINING IJTIMOIY-FALSAFIY TASNIFI. *News of the NUUz*, 1(1.10. 1), 166-168.
16. Ikromovich, P.K. JADIDIZM HARAKATINING MOHIYINING IJTIMOIY-FALSAFIY YONDORISHI. *Amerika ijtimoiy fanlar va insoniyat tadqiqotlari jurnali* , 4 (11), 175-181.